

Amudaryo daryosining quyi qismidan oxirgi 40 yilda birinchi marotaba qora kaptarning uyalashiga doir ishonchli ma'lumotlar olindi

O'zR FA Zoologiya institutida bajarilayotgan "Qoraqalpog'istonning kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan hayvonlar turlari kadastrini yuritish va tekis tuyoqlilarini hisobga olish usullarini ishlab chiqish" loyihasi doirasida Amudaryo deltasida qora kaptarning uyalovchi populyatsiyasi saqlanib qolganligi aniqlandi.



foto: N.V.Marmazinskaya.

Qora kaptar Xalqaro qizil ro'yxatga va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga zaif, qisqarib borayotgan tur sifatida kiritilgan. Hisob ishlarini o'tkazish davrida ushbu mintaqada 110-115 juftdan kam bo'lmagan qushning uyalashda ishtirok etishi aniqlandi.

Amudaryo deltasidagi to'qayzorlar, xususan, ko'p yillik, yo'g'on poyali turang'il daraxtlari ushbu noyob kaptar turi populyatsiyasining reproduktivligini saqlashda muhim o'rin tutadi.

O'zR FA Zoologiya instituti ilmiy xodimi N.N.Azimov.